

YUSUF XOS HOJIB “QUTADG‘U BILIG” ASARINING AXLOQIY TARBIYAVIY JIHATLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15654553>

Saydaliyeva Nigora

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (TDSHU),
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Sharq falsafasi va germeneytika kafedrası

ORCID 0000-0001-8884-8724 e-mail:

saidaliyeva_nigora@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridagi axloqiy-tarbiyaviy g‘oyalar yoritilgan. Asar XI asrda yaratilgan bo‘lib, unda davlat boshqaruvi, adolat, ilm, aql, din, odob-axloq, tarbiya kabi muhim ijtimoiy va ma‘naviy masalalar falsafiy jihatdan tahlil etiladi. Muallif asar orqali insoniy fazilatlarni targ‘ib qilib, jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining asosiy mezoni sifatida axloq va tarbiyani ko‘rsatadi. Maqolada Kuntug‘di, Ozgmish, Og‘durmish va Uslug‘ kabi obrazlar orqali ifodalangan asosiy axloqiy fazilatlar chuqur tahlil etiladi. “Qutadg‘u bilig” bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, qadimiy, ammo abadiy qadriyatlar majmuasidir.

Kalit so‘zlar: Yusuf Xos Hojib, Qutadg‘u bilig, axloq, tarbiya, adolat, ilm, aql, fazilat, davlat boshqaruvi, falsafa, didaktik doston, Kuntug‘di, Og‘durmish, Uslug‘.

MORAL EDUCATIONAL ASPECTS OF YUSUF KHOS KHOJIB'S WORK “KUTADGU BILIG”

N.Z. Saydaliyeva - PhD of philosophical sciences,

Tashkent State University of Oriental Studies, Tashkent, Uzbekistan

ORCID 0000-0001-8884-8724 e-mail: saidaliyeva_nigora@mail.ru

Abstract. This article discusses the moral and educational ideas in Yusuf Khos Hajib's work “Kutadgu bilig”. The work was created in the 11th century and philosophically analyzes important social and spiritual issues such as state administration, justice, science, reason, religion, morality, and education. Through the work, the author promotes human qualities and shows morality and education as the main criterion for the stability and development of society. The article deeply analyzes the main moral qualities expressed through characters such as Kuntugdi, Ozgmish, Ogdurmish, and Uslug. “Kutadgu Bilig” is an ancient but eternal set of values that has not lost its relevance even today.

Keywords: Yusuf Khos Hajib, Kutadgu knowledge, morality, education, justice, science, intelligence, virtue, state administration, philosophy, didactic epic, Kuntugdi, Ogdurmish, Uslug.

Kirish

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari XI asrda turkiy xalqlar madaniyati va adabiyoti tarixida muhim o‘rin egallagan falsafiy-didaktik asardir. Muallif Yusuf Balasog‘uniy Balasog‘un shahrida tug‘ilgan va o‘z asarini 1069–1070 yillarda Qashg‘ar shahrida yozib, uni Qoraxoniylar sulolasining hukmdoriga taqdim etgan. Ushbu asar muallifga “Xos Hojib” degan unvon olib kelgan bo‘lib, bu saroyda maxsus maqom va e‘tiborli mansabni anglatgan. “Qutadg‘u bilig” degan nom o‘zbek tilida “Saodatga eltuvchi bilim” yoki “Baxt keltiruvchi dono so‘z” deb tarjima qilinadi. Asar qadimgi turkiy tilda yozilgan bo‘lib, unda forscha va arabcha so‘zlar deyarli uchramaydi. U aruz vaznida yozilgan bo‘lib, jami 6645 baytdan iborat. Janri jihatidan asar didaktik doston hisoblanadi [1]. U o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-axloqiy hayotini aks ettiruvchi, davlat boshqaruvi, adolat, aql, axloq, ilm va tarbiya masalalarini qamrab olgan falsafiy asardir.

“Qutadg‘u bilig”da asosiy axloqiy qadriyatlar sifatida adolat, sadoqat, to‘g‘ri so‘zlash, sabr, halollik va xushmuomala bo‘lish keltiriladi. Ushbu qadriyatlar insonlarning shaxsiyati va jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Asarda tarbiya bo‘yicha ko‘plab maslahatlar mavjud. Masalan, yoshlarga yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlarni singdirish, oliyjanoblik va bilimga qiziqish targ‘ib qilinadi. “Qutadg‘u bilig”da yoshlarning tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga tayyorlanishiga qaratilgan g‘oyalar mavjud.

Adabiyotlar tahlili

Maqolada asar tahlili adabiy-madaniy, tarixiy va falsafiy metodlarga asoslanadi. Asar mazmuni va shakli o‘rganiladi, uning axloqiy g‘oyalari va tarbiyaviy ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Yana shuni ta‘kidlash kerakki, “Qutadg‘u bilig”da o‘zbek adabiyotining axloqiy asoslari, inson haq-huquqlari, jamiyatdagi o‘zaro hurmat kabi muhim tushunchalar ochib beriladi.

Asarda keltirilgan axloqiy o‘gitlar faqat hukmdorlar uchun emas, balki har bir fuqaroga ham tegishli. “Qutadg‘u bilig”da ta‘lim, axloqiy g‘oyalar, davlat boshqaruvi va jamiyatda o‘zaro hurmatga qaratilgan maslahatlar bir-birini to‘ldiradi va o‘zaro muvozanatni yaratadi.

Yusuf Xos Hojib XI asrda yashagan buyuk turk yozuvchisi va mutafakkiridir. Uning “Qutadg‘u bilig” asari turkiy xalqlarning qadimiy axloqiy adabiyoti va tafakkurining yuksak namunasi bo‘lib, davlat boshqaruvi, jamiyatda adolat, axloq va ma‘naviyatga oid qadriyatlarni o‘rgatadi.

Asar 6 bo‘limdan iborat bo‘lib, unda “odamiylik”, “axloq”, “adolat”, “sabrlik” kabi tushunchalar keng yoritilgan. Asar, shuningdek, hukmdorlarning axloqiy xususiyatlari, fuqarolarning burchlari va jamiyatda o‘zaro hurmatni shakllantirishga oid fikrlarni o‘z ichiga oladi. Asarda muallif jamiyat tuzilishi va boshqaruvi haqida o‘z qarashlarini bayon etadi. Bu g‘oyalar to‘rt asosiy timsol orqali ifodalanadi. Birinchi obraz Kuntug‘di bo‘lib, u adolatni ifodalaydi va podsho sifatida tasvirlanadi. Ikkinchi obraz O‘zg‘mish bo‘lib, u baxt va davlatni ifodalaydi. U podshoning vaziri bo‘lib, dunyoviy baxt haqida fikr yuritadi.

Uchinchi obraz O'gdulmish – aql va tafakkurni ifodalaydi[2]. U vazirning o'g'li sifatida doimiy ravishda mulohaza va maslahat bilan ish tutadi. To'rtinchi obraz esa Odobli yoki Uslug' bo'lib, u qanoat, riyozat va dinni ifodalaydi. Bu to'rt obraz birgalikda jamiyatning to'laqonli taraqqiyoti uchun kerakli bo'lgan asosiy fazilatlarni timsol qiladi.

Tahlil va natijalar

Davlatni adolat bilan boshqarish, aql bilan ish tutish, qanoat bilan yashash va donolik bilan ish yuritish har qanday jamiyatni baxt-saodat sari yetaklaydi. Yusuf Xos Hojib ilm, aql, odob, axloq, din, adolat va halollikni inson kamoloti va davlat mustahkamligining garovi sifatida ko'rsatadi. Asarda inson qanday yashashi, qanday fazilatlarni egallashi, qanday boshqaruv bo'lishi kerakligi haqida chuqur mushohadalar yuritiladi. Bu asar o'z davrining axloqiy-falsafiy maktabi sifatida xizmat qilgan. "Qutadg'u bilig" asari o'z zamonasidan ancha ilg'or g'oyalarni ilgari surgan. Muallif davlat boshqaruvida qonun, adolat va aqlning muhimligini, hukmdor va mansabdorlarning xalq oldidagi mas'uliyatini, xalq esa adolatli hokimiyatga itoat etishi kerakligini asoslab beradi. U milliy til, madaniyat va qadriyatlarni yuksaltirishga katta e'tibor bergan[3]. Asar usluban ham yuksak darajada yozilgan bo'lib, unda go'zal badiiy tasvirlar, hikmatli so'zlar, maqollar va pand-nasihatlar keng o'rin olgan.

Bugungi kunda "Qutadg'u bilig" asari qadimiy adabiy yodgorlik sifatida qadrlanadi. Uning qo'lyozma nusxalari Avstriyaning Vena shahrida, O'zbekistonning Namangan va Farg'ona kutubxonalarida saqlanadi. Asar ko'plab tillarga tarjima qilingan, turli ilmiy izohlar bilan nashr etilgan. Bu asar o'zbek va boshqa turkiy xalqlar adabiyoti, falsafasi, madaniyati tarixida bebaho durdona bo'lib qolmoqda.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari o'z zamonasidagi eng muhim axloqiy-falsafiy meroslardan biri hisoblanadi. Asar XI asrda Qoraxoniylar davlatida yozilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi – insonni ma'naviy kamolotga yetaklash, jamiyatda adolat, tartib-intizom va ezgu fazilatlarni qaror toptirishga qaratilgan. Muallif ushbu asar orqali insonni tarbiyalash, uning aqliy va axloqiy rivojiga hissa qo'shishni maqsad qilgan. Asarda axloqiy tarbiya masalalari hayotda uchraydigan turli holatlar misolida yoritib berilgan[4]. Yusuf Xos Hojib inson tabiati, uning fazilat va kamchiliklari, to'g'ri hayot tarzi haqida fikr yuritarkan, har bir inson ilm va axloq orqali samimiy hayot kechirishini targ'ib qiladi. Asardagi to'rt asosiy obraz – Kuntug'di (adolat), Ozgmish (baxt), Og'dulmish (aql), va Uslug' (qanoat, taqvo) orqali muallif turli axloqiy qarashlarni yoritadi.

Asarda eng asosiy tarbiyaviy masalalardan biri — adolat masalasidir. Muallif podshohlik va rahbarlikda adolatni bosh mezon qilib oladi. Uningcha, adolatsiz jamiyatda tartib, tinchlik va rivoj bo'lishi mumkin emas. Shu bois Kuntug'di obrazi orqali Yusuf Xos Hojib adolatli boshqaruvni namuna sifatida ko'rsatadi va har bir rahbar o'z zimmasidagi mas'uliyatni anglab, xalqqa insofu adolat bilan munosabatda bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Ikkinchi muhim axloqiy-tarbiyaviy masala – aql va ilmning qadri. Og‘durmish obrazi orqali muallif inson hayotida aqlning o‘rnini ta’riflaydi. U aqlni barcha fazilatlarni boshqaruvchi kuch deb hisoblaydi. Odam ilm va aql bilan yaxshi yomonni farqlaydi, to‘g‘ri qaror qabul qiladi va hayotda yo‘l topadi. Muallif jaholatni eng katta dushman deb bilib, har bir inson doimo bilim olishga intilmoqligi kerakligini uqtiradi. Asarda odob, hurmat, rostgo‘ylik, tinchliksevarlik, tadbirkorlik, halollik kabi fazilatlar ham keng yoritilgan. Yusuf Xos Hojib insonni axloqiy jihatdan kamolga yetkazish uchun uni yaxshi so‘z, yaxshi xulq va ezgu amallar bilan tarbiyalash zarurligini ta’kidlaydi[5]. Uning fikricha, inson o‘z nafsini tiyishni, boshqalarga rahm-shafqat ko‘rsatishni, halol mehnat qilishni o‘rganmog‘i kerak.

Insoniy fazilatlarning targ‘ibi. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig”da insonning komil bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan fazilatlarni atroflicha tahlil qiladi. Asarda halollik, sabr, shukr, itoat, kamtarlik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, kechirimlilik kabi sifatlar alohida e’tirof etiladi. U har bir inson bu fazilatlarni o‘zida shakllantirsa, jamiyat barqaror va adolatli bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Ilm va tarbiya – kamolot yo‘li. Yusuf Xos Hojib fikricha, insonning haqiqiy boyligi – bu ilm va tarbiyadir. U shunday deydi: “Ilm kishi uchun quyoshdir, jaholat esa zulmat”. Ilm bilan qurollangan inson doimo to‘g‘ri yo‘lni tanlaydi. Asarda ilm olishga undash, o‘qish, o‘z ustida ishlash targ‘ib qilinadi. Tarbiya esa har qanday fazilatning ildizi sifatida ko‘rsatiladi.

Aql va donishmandlikning ustuvorligi. Og‘durmish obrazi orqali aql-idrokning, donolik va tafakkurning jamiyat hayotidagi roli yorqin aks ettirilgan. Donishmand inson og‘ir vaziyatda ham to‘g‘ri yo‘lni topadi. Aql yurakdan oldin yurishi kerak, degan g‘oya ilgari suriladi. Bu bugungi kunda ham yetakchilik va shaxsiy rivoj uchun dolzarb fikrdir.

Rahbarlar uchun axloqiy me‘yorlar. Asarda podsho va amaldorlar qanday bo‘lishi kerakligi, ular xalq oldida mas’ul ekani doimiy eslatib o‘tiladi. Ularning adolatli, bilimli, halol, mehnatkash, xalqparvar, murosali bo‘lishi kerakligi ta’kidlanadi. Bu rahbarlar uchun bir necha asrlar oldin yozilgan “etik kodeks” bo‘lib xizmat qiladi.

Tarbiyaning oila va jamiyatdagi roli. Yusuf Xos Hojib oilaviy tarbiyani ham muhim omil sifatida ko‘rsatadi. Ota-onaning farzandga bergan tarbiyasi kelajakda uning jamiyatdagi o‘rnini belgilaydi. Tarbiyali inson o‘zini ham, boshqalarni ham hurmat qiladi. Shu bois asarda axloqiy tarbiya eng muhim boylik sifatida qaraladi.

Dunyo va oxirat muvozanati. Muallif insonga nafaqat dunyoviy, balki ruhiy hayot ham muhimligini uqtiradi. Uzlug‘ obrazi orqali sabr, qanoat, taqvo, poklik kabi fazilatlar targ‘ib qilinadi. Bu orqali insonning ruhiy poklanishi, ichki dunyosini tarbiyalash g‘oyasi ilgari suriladi.

Til, nutq va so‘z madaniyati. Yusuf Xos Hojib yaxshi so‘z, mulohazali va odobli gapirishni insonning madaniyati, axloqi va fazilatining belgisi deb hisoblaydi. U nojo‘ya so‘zlarni taqiqlaydi, bo‘lar-bo‘lmas joyda so‘zlamaslikni maslahat beradi. Asarda bu borada ko‘plab hikmatli misralar mavjud.

Asarning yana bir muhim jihati – dunyoiiy va ruhiy kamolotning muvozanati. Ushbu fikr Uzlug‘ (Odobli) obrazi orqali yoritilgan. U zohidlik, sabr, taqvo va ruhiy poklik timsoli sifatida tasvirlanadi. Bu obraz orqali muallif inson faqat moddiy ne‘matlar bilan emas, balki ruhiy boylik – qalb pokligi, qanoat va uzluksiz o‘z ustida ishlash bilan ham saodatga yetishishini ko‘rsatadi.

Qisqasi, “Qutadg‘u bilig” asari har bir inson va jamiyat uchun foyda keltiradigan axloqiy va ma‘naviy qoidalar majmuasidir. Bu asardagi ta‘limotlar bugungi kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan. U insonni ezgulik, rostgo‘ylik, haqiqatparvarlik, odob-axloq, ilm va aql sari chorlaydi. Muallif har bir shaxs o‘z burchini to‘g‘ri anglab, jamiyatda adolat, tinchlik va ahillikni ta‘minlashi lozimligini uqtiradi.

“Qutadg‘u bilig” asari o‘z zamonasida va undan keyin ham axloqiy va tarbiyaviy jihatdan katta ta‘sir ko‘rsatgan. Bu asar faqat bir adabiy asar sifatida emas, balki insonlarni ma‘naviy jihatdan yuksaltiruvchi, axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi bir manba sifatida ham o‘rganish zarur. Ayniqsa, yosh avlodni axloqiy jihatdan tarbiyalashda bu asardan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda bu asar ta‘lim-tarbiya jarayonida qanday qo‘llanilishi mumkin? Axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda “Qutadg‘u Bilig”ning o‘rni qanday? Bu savollarni muhokama qilish, ayniqsa, ta‘lim sohasidagi pedagogik ishlanmalar bilan bog‘liq.

Xulosa

“Qutadg‘u bilig” – bu insonni ezgulik, adolat va kamolot sari yetaklovchi bebaho axloqiy-falsafiy asardir. Yusuf Xos Hojib o‘z asarida insonning komil bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan fazilatlar – aql, ilm, odob, qanoat, sabr, to‘g‘rilik, halollik va din asoslarini yuksak qadrlaydi. Podshohlik va rahbarlik mas‘uliyatini adolat asosida yoritadi. Aql-idrok va ilm insonni zulmatdan nur sari olib borishini isbotlaydi. Asar nafaqat o‘z davrining, balki bugungi kunning ham muhim axloqiy manbai bo‘lib, yosh avlodni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Undagi g‘oyalar milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirgan bo‘lib, abadiy dolzarb ahamiyatga egadir.

“Qutadg‘u bilig” asari, ayniqsa uning axloqiy va tarbiyaviy jihatlari, o‘zbek adabiyotining ajralmas qismi bo‘lib, o‘z davrida va bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega. Yusuf Xos Hojibning axloqiy o‘g‘itlari nafaqat davlat boshqaruvchilari, balki har bir fuqaroning jamiyatdagi o‘rni va ma‘naviy rivojlanishi uchun muhimdir. Bu asar zamonlar osha dolzarb bo‘lib qolmoqda va uning o‘g‘itlari bugungi kunda ham yosh avlodni tarbiyalashda asosiy manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1984.
2. Sirojiddinov S. Qutadg‘u bilig va uning badiiyati. – Toshkent: Fan, 1976.
3. Vohidov Sh. Qutadg‘u bilig – davlat va jamiyat boshqaruvi haqida. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

4. Hayitmetov A. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Universitet, 2002.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
6. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: 2000–2005, tegishli jildlar.